

# **HASHAR – ELGA YARASHAR**



## **HASHAR – ELGA YARASHAR**

Hashar – barchamizga ma'lumki, xalqimiz orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg'arez yordam shakllaridan biridir.

Bunyodkorlik, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, bog' yaratish xalqimizning azaliy xislatlaridan sanaladi. Zero, o'zimiz yashab turgan joyni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tufayli ko'nglimiz shodlikka to'ladi.

Termiz shahrida e'lon qilingan hasharning bugun ikkinchi kuni ham erta tongdan ko'tarinki kayfiyatda boshlandi.

Vohamiz obodonlashtirish tizimi mehnatkashlari o'zaro hamjihatlikda mazkur tadbirda shahrimiz mahallalari, ko'cha va xiyobonlari, aholi turar joylarini obodonlashtirish ishlarini davom ettirdilar.

Ushbu jarayon davomida xasharchilarga doshqozonlarda osh damlanib, to'kin dasturxon yozildi.







